



International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies

International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies - is an international conference platform under open access policy. The conference is led by international expert members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed, edited by authors and evaluated on its own scholarly merits and research integration. Publishing and joining on the proceeding of the International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies will ensure publishing experience and indexing possibilities on various global indexing.

“Halol Texnologiya” Asosida Hayvonlarni So‘Yishni Tashkil Qilish

D. Rahmonqulova

Magistr, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

R. Pardayev

Q.x.f.f.d. (PhD), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada islom dini udumlariga asoslangan holda turli chorva hayvonlarini so‘yish jarayonlari, jumladan, qonsizlantirish, terisini shilish, ichki organlarini ajratish kabi jarayonlar va hayvonlarni kushxonalarda saqlash tartib-qoidalari batafsil yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Kushxona, submahsulot, qonsizlantirish, islom dini, kudirgi, manqa, kombinat, boks, utilizatsiya.

Kirish. Chorvachilik qishloq xo‘jaligining eng zarur tarmog‘i bo‘lib, mazkur tarmoq insonlar iste‘moli uchun sut, go‘sht, tuxum, yog‘, asal va shunga o‘xshash mahsulotlar yetishtirib beradi. Sanoat uchun esa xomashyo sifatida jun, teri, mo‘yna, par, po‘stin, pilla, tivit, qil va boshqa xomashyo yetkazib beradi. Bundan tashqari, bir qator qishloq xo‘jalik hayvonlari (eshaklar, buqalar, otlar, qo‘toslar) transport va qishloq xo‘jalik ishlarida foydalaniladi.

Respublikamizda chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlari, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish, ularning hajmi va assortimentini bir vaqtning o‘zida ko‘paytirish bilan bog‘liq. Ushbu yo‘nalish bilan bog‘liq muammolarni amaliy hal qilishda birinchi navbatda qayta ishlashning texnologik darajasi va uning texnik tarkibiy qismiga asoslanadi. Shuning bilan birga, mamlakatimizda hayvonlarni so‘yish jarayonlarini sanoat asosida islom udumlariga asoslangan holda tashkil etish muhim tashkiliy masalalardan biridir. Shularni e‘tiborga olgan holda, tadqiqot qilinyotgan mavzu dolzarb hisoblanadi.

Natijalar va ularning tahlili. Islom qoidalariga muvofiq qishloq xo‘jalik hayvonlarini so‘yish va tanasini nimalash ishlari kushxona, muzxonali kushxona va go‘sht kombinatlarida tajribali mutaxassislar tomonidan olib boriladi. Bunday go‘sht kombinatlari mol so‘yilgach, uning go‘shtiga to‘liq ishlov beriladigan korxonada bo‘lib hisoblanadi.

Chorva hayvonlarini kushxona yoki go‘sht kombinatiga olib kelishda turli xil sharoitlar ya‘ni, ularning salomatligi, so‘yish oldidan ularni boqish, go‘shtini ishlash tartibi, so‘yiladigan hayvon

go'sht sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. So'yish uchun keltirilgan hayvonlar yaxshi parvarish qilingan, to'la qiymatli oziqlantirilgan bo'lishi, keltirilayotganda yo'lda toliqib qolmasligi va vazni pasayib ketmasligi zarur. So'yiladigan mollarning salomatligi fiziologik normada ya'ni yaxshi bo'lishi talab etiladi. Aks holda, ularni so'yishga ruxsat etilmaydi. Buning sababi, bunday holat inson uchun ham xavfli hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik hayvonlarida yuqumli kasalliklar asosan ikki xil yo'l bilan o'tadi. Birinchisi, mikroorganizmlar tomonidan vujudga kelsa (kuydirgi, manqa, oqsil, brutsellyoz, sil va boshqalar), ikkinchisi gijjalardan kelib chiqadigan invazion (finnoz, trixinoz kabi) kasalliklar hisoblanadi.

Kushxona yoki go'sht kombinatiga so'yish uchun olib kelingan hayvonlar avval mol bazasiga yuboriladi, u yerda mollar qabul qilinib, veterinariya vrachi ko'rigidan o'tkaziladi. So'ngra hayvonlar turi, jinsi, yoshi va semizlik darajasiga qarab guruhlarga ajratiladi hamda so'yish oldidan asraladigan bazaga o'tkaziladi. Bu yerda qoramol va qo'y-echkilar 24 soat och qoldiriladi hamda hayvonlarga so'yishdan oldin dam beriladi. Hayvonlar so'yishdan oldin och qoldirishning sababi ularning oshqozon-ichak yo'lini tozalashdan iborat. Aks holda go'sht nimalanayotganda ifloslanishi mumkin.

So'yishdan oldin dam berilishi zarur. Chunki, charchagan mollarda qonning oqib chiqishi qiyinroq bo'ladi, bundan tashqari, ichki organlarida mikroorganizmlar to'planadi va ular ichakdan qonga va qon orqali organizmga tarqalish ehtimoli yuqori bo'ladi. Binobarin, hayvonlarga dam berish ko'p ijobiy natija beradi. Bundan tashqari, charchagan molning go'shti sifatsiz bo'ladi.

Hayvonlarni qabul qilishda ular orasida kasallari bo'lsa, yoki gumon qilinganlari izolyatorga yuboriladi, yoki ular sanitariya kushxonasida so'yilishi mumkin. Kasallikka gumon qilingan mollar asosan karantinga qo'yiladi. Qoramol va qo'ylarni so'yish tartibi asosan bir xil bo'lib, faqat ayrim bosqichlari bilan bir biridan farq qiladi. Qoramollarni so'yish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi: fiksatsiya, qonsizlantirish, terisini shilish, ichki organlarini olish, tanani teng ikkiga bo'lish, nimalarni tozalash hamda tamg'alash (muhrlash) dan iborat. So'yilgan molning quloq, burun va lablari atrofidagi terisi kesib olinadi, so'ng bosh terisi o'ng burun katagidan chap shoxgacha shilib olinadi. Tomog'idagi kesik pastki labidagi halqasimon kesikkacha yetkaziladi va boshining qolgan qismidagi terisi shilinadi, so'ngra birinchi bo'yin umurtqasi bilan ensa suyagi orasidan kesilib, bosh tanadan ajratiladi.

Qoramolni so'yish jarayonida islom qoidalari (odatlari) talablariga qattiq rioya etiladi. So'yishda qoramol «boks»ga yuboriladi. Boks pnevmatik va gidravlik turlarda bo'ladi. Boks maxsus moslama bo'lib, hayvonni boksga kiritgandan so'ng uni qisish jarayoni bo'ladi, natijada hayvon bosh tomoni uning yelka tomonigacha ko'tariladi. Hayvonni qonsizlantirish uchun boks 180⁰ gacha aylantiriladi, natijada hayvon gorizontol holga keltiriladi. Shundan so'ng ishchi diniy udumlarga asoslangan holda zudlik bilan minimum stressda, ya'ni hayvonga azob bermasdan so'yish jarayoni o'tkaziladi. Tez qonsizlantirish go'shtni yuqori darajada sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

1-jadval. Turli hayvonlarda so'yish jarayonida qonning chiqish miqdori, tirik vaznga nisbatan %

Hayvon turi	Jami tanadagi qon	So'yish jarayonida chiqqan qon
Qoramol	7-8	4,2
Qo'y	6-7	3,5
Echki	6-7	3,5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qoramollarda ularning tirik vazniga nisbatan qonning miqdori 7-8 % ni tashkil etsa, qo'y va echkilarda bu ko'rsatkich 6-7 % ga teng bo'lar ekan. Qonsizlantirishda, qoramollarning tirik vazniga nisbatan yig'ilgan qonning miqdori 4,2 %, qo'y va echkilarda 3,5 % dan kam bo'lmasa, ular yetarli darajada qonsizlangan hisoblanar ekan. Qonsizlantirish vertikal holatda olib boriladi. Ya'ni, hayvon orqa oyog'idan yuqoriga ilinib, bosh

tomoni pastga qaratilgan bo'lishi lozim.

Yirik shoxli qoramol tanasini qonsizlantirishda hayvonot osilgan holda tezlik bilan qonsizlantiriladi. Hayvonotdan maksimal qon ajratishda davomiy vaqt talab etiladi. Qon maxsus bak (idishlarga) larga quyiladi, so'ngra uni qayta ishlashga yoki utilizatsiyaga yuboriladi.

Hayvonotni terisini shilishda mexanik usuldan foydalanish mumkin. Bu usul bo'yicha terisi shilinganda go'shtni yo'qotish foizi kam va bakterial ifloslanish past bo'ladi.

Hayvonni ichki organlaridan ajratish jarayoni ham muhim hisoblanib, uning qanday bajarilishi go'shtning sifatiga ta'sir qiladi. Eng qimmatli xomashyolarga ichak, bosh, oyoq va qrin kabi submahsulotlar kiradi. Ular ham qimmatli va daromadli mahsulotlar hisoblanadi. Mahsulotni chiqish foizi tozalashni sifatiga va gigiyenik darajasiga bog'liq.

So'yilgan hayvon tanasini bo'laklarga bo'lish va go'shtini ajratish uchun ishonchli, yuqori ishlab chiqaruvchi arralardan foydalaniladi. Go'sht kombinatlarida yirik shoxli qoramol tanasi arralar yordamida teng ikkiga bo'linadi, natijada yarim tana hosil bo'ladi. Bu ishlar hayvonni birlamchi ishlov berish sexlarida amalga oshiriladi.

Mamlakatimiz go'sht korxonalarida molni so'yish va dastlabki ishlashning barcha bosqichlarida qat'iy veterinariya nazorati o'rnatilgan. Binobarin, inson uchun zararli bo'lgan kasal molning go'shtini sotishga ruxsat berilmaydi. Kasal molning go'shti uning qanday kasal bilan kasallanganligini va kasalning zo'rayish darajasiga qarab iste'mol uchun butunlay yaroqsiz yoki shartli yaroqli deb belgilanadi.

Xulosa. Halol texnologiya asosida so'yish jarayonlarini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari yuqorida ko'rib chiqdik. Ushbu texnologiya asosida tayyorlangan va qayta ishlangan mahsulotlar aholimiz tomonidan sevib iste'mol qilinishini e'tiborga olgan holda ushbu texnologiyani keng joriy qilish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Fydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-36-sonli farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida to'g'risida»gi, PF-60-sonli farmoni
3. Pardayev R.G., Tulayev A.A. "Chorvachilik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi" darslik. Toshkent- 2023.
4. Ikromov T.X., Qo'chqorov O'.R. "Chorva, parranda va baliq mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash texnologiyasi" darslik. Toshkent- 2013.
5. Tursunmurodovich, R. U., Gulmurod o'g', P. R. Z., Ramatullayevich, S. F., Rustam o'g'li, B. A., & Gulmurod o'g'li, P. E. (2023). RESPUBLIKAMIZDA CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIKDAN OLINGAN MAHSULOTLAR. AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIIY JURNALI, 1-6.
6. Tursunmurodovich, R. U., Baxtiyor o'g'li, S. A., Nodirjonovich, X. K., Umarbek o'g', B. N. M., Komilovich, K. S., Quvondiq o'g'li, E. Z., ... & Gulmurod o'g'li, P. E. (2023). TAJRIBA GURUHIDAGI GOLSHTIN SIGIRLARNING I-LAKTATSIYADA OZUQANI SUT BILAN QOPLASH DARAJASI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIIY JURNALI, 176-182.
7. Musurmonov, Q., Pardayev, R., Ismatova, M., & Xamanova, S. (2023). Productivity of Cows in the Experimental Group with Black-and-White and Its Crossbreeds with Holstein Bulls. Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521), 1(5), 532-535.

8. Пардаев, Р., & Рахимов, У. (2023). Tajriba guruhlaridagi sigirlarning klinik ko'rsatkichlari. Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов, 1(1), 300-303.
9. Рахимов, У., Пардаева, Р., & Пардаев, Э. (2023). Level of feed consumption by milk productivity in experimental cows in the second lactation. Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов, 1(1), 293-295.
10. Safarov, U. T., Saidmuradova, Z. T., & Nurmukhamedov, A. M. (2023, July). Adhesion strength of the dough for Uzbek flat cakes "Obi-non" in multiple sequential stamping of bills. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2999, No. 1). AIP Publishing.
11. Navbahor, R. (2023). SUT MAHSULOTLARI KISLOTALIGI HAMDA SUT KISLOTASINING NORDON VA ACHITILGAN SUT MAHSULOTLARI SIFATIGA TA'SIRI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 55-63.
12. Amina, Q. (2023). OILAVIY KORXONALAR VA UY-RO'ZG'OR SHAROITIDA BALIQ KONSERVALARI ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 155-161.
13. Javlon, J., & Ulmas, S. (2023). SUTNING MIKROSTRUKTURAVIY XOSSALARI O'ZGARISHLARINING MAHSULOTLARNI QAYTA ISHLASHNI OPTIMALLASHTIRISHDA AHAMIYATI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 101-106.
14. КУРБАНОВ, Ж. М., ОЛИМОВ, А. О., САФАРОВ, У. Т., & ОСТАПЕНКОВ, А. М. (1984). Установка для производства хлеба.
15. Sanaev, S. T., & Shamsieva, S. B. (2020). Growing Varieties of Vegetable (Sweet) Corn Suitable for Processing. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT).
16. Shamsiyeva, S. B., & Aliqulova, Z. (2023). KARTOSHKA YETISHTIRISHNING RESURSTEJAMKOR TEXNOLOGIYASI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 19-25.
17. Рахматов, И. И., & Шамсиева, Ш. Б. (2023). ВЛИЯНИЕ СРОКА И СХЕМЫ ПОСАДКИ НА РОСТ, РАЗВИТИЕ И УРОЖАЙНОСТЬ САХАРНОЙ КУКУРУЗЫ. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 13-18.
18. Ишниязова, Ш. А., Тилавов, Х. М., Турсунов, А., Шамсинва, Ш., Жамолиддинова, В., & Сатторов, М. М. (2015). Экологическая оценка объектов биосферы. In ДОСТИЖЕНИЯ НАУКИ-АГРОПРОМЫШЛЕННОМУ ПРОИЗВОДСТВУ (pp. 228-233).
19. Sanaev, S. T., & Shamsieva, S. B. (2020). Growing Varieties of Vegetable (Sweet) Corn Suitable for Processing. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 22(2), 67-70.
20. Muminov, N., Yusupov, A., Tuvg'unov, A., & Tulayev, A. (2022). TARKIBI BOYITILGAN GO 'SHTLI CHUCHVARA YARIM TAYYOR MAHSULOTNING AMINAKISLOTALI TARKIBI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 816-818.
21. Tulayev, A. A., & Musurmonov, A. T. (2024). OZUQABOP EKINLAR POYALARINI MAYDALASH MASHINASI. Science and innovation, 3(Special Issue 21), 419-421.

22. Xoldorov, A., & To'layev, A. A. (2023). OZIQA VIY QIYMATI YUQORI BO 'LGAN SUT MAHSULOTLARI OLI SHNING ZAMONAVIY USULLARI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 64-69.
23. Murtazayev, O., & To'layev, A. A. (2023). DARAXT VA BO 'TAZOR O 'SIMLIK LARINING BARGXAZONLARI, ULARNING FIZIK-MEXANIK VA TEKNOLOGIK XUSUSIYATLARI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 162-168.
24. Xudayberdiyev, E. N., Samandarov, L. K., & Nasriddinov, K. R. (2020). Improving the effectiveness of teaching nuclear physics using the principle of historicity. ISJ Theoretical & Applied Science, 11(91), 383-390.
25. Бойбулов, Б. Ш., Пардаев, Р. Г., & Мусурмонов, Қ. Э. (2022). ҚОРАМОЛЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТЎЙИМЛИ ОЗИҚЛАНТИРИШ, АСРАШ ВА СУНЪИЙ ҚОЧИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 528-530.
26. Бойбулов, Б. Ш., Пардаев, Р. Г., & Мусурмонов, Қ. Э. (2024). ҚОРАМОЛЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТЎЙИМЛИ ОЗИҚЛАНТИРИШ, АСРАШ ВА СУНЪИЙ ҚОЧИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ. ILM FAN XABARNOMASI, 1(2), 355-359.
27. Kazakova, S. O., & Bahodirov, S. D. (2023). Mamlakatimizda go'sht kanservalari ishlab chiqarishning hozirgi holati va rivojlanishi. Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali, 136-141.
28. Kazakova, S. O., Bahodirov, S. D., Temirov, O. H., & Murotqobilova, M. S. (2024). HAYVON YOG 'LARINI QAYTA ISHLASH TEXNALOGIYASI. International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 5(2), 1409-1412.
29. O'sarov, M. J., Kazakova, S. O., Bahodirov, S. D., & Tulkinova, U. S. (2024). PISHLOQ ISHLAB CHI QARISHDA SUT SIFATIGA QO 'YILADIGAN TALABLAR. International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 5(2), 1405-1408.
30. Turobov, S. K. O. T. A. (2023). VARIETIES OF BEEF AND CULINARY CHARACTERISTICS. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(12).
31. Kazakova, S. O. (2023). TURLI KONSTITUTSIYA TIPIGA EGA SIMMENTAL SIGIRLARNING ASOSIY SELEKSIYA BELGILARI O 'RTASIDA KORRELYATSIYA KOEFFITSIENTLARI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 114-122.
32. Muminov, N., Yusupov, A., Tuyg'unov, A., & Tulayev, A. (2022). TARKIBI BOYITILGAN GO 'SHTLI CHUCHVARA YARIM TAYYOR MAHSULOTNING AMINAKISLOTALI TARKIBI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 816-818.
33. Muminov, N., Yusupov, A., Tuyg'unov, A., & Tulayev, A. (2022). TARKIBI BOYITILGAN GO 'SHTLI CHUCHVARA YARIM TAYYOR MAHSULOTNING AMINAKISLOTALI TARKIBI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 816-818.
34. Yusupov, A. H., & Tuyg'unov, A. B. (2022). DO 'LANANING SHIFOBAXSHLIGI VA UNI QURITISH TEKNOLOGIYASI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 1(2), 1-6.
35. Akhtamova, M. T., Kurbanova, S. E., Sadikova, C. S., & Gapparov, S. T. Correlation Between Some Economic Traits of Holstein Breed Cows. INTERNATIONAL JOURNAL OF BIOLOGICAL ENGINEERING AND AGRICULTURE/.

36. Botir o'g'li, X. X., & Ergashevna, Q. S. (2023). TAJRIBADAGI HAYVONLARNING CHIZIQLI O'LG'AMLARI VA TANA INDEKSLARI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 247-254.
37. Botir o'g'li, X. X., & Ergashevna, Q. S. (2023). TAJRIBA GURUHLARIDAGI HAYVONLARNING O'SISH VA RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI. AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, 84-89.
38. Эгамбердиева, З. К., Нарбаева, М. К., Эргашевна, Қ. Ш., & Гаппаров, Ш. Т. (2023). Голштин Зотлисигирларнинг Экстерьер Кўрсаткичлари. Miasto Przyszłości, 42, 179-182.
39. Ulmasovna, I. D., & Ergashevna, Q. S. (2023). TAJRIBA GURUHIDAGI SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIGI. AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, 100-105.